

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

XALQ PEDAGOGIKASIDA TARBIYANING MAQSAD VA

VAZIFALARI

Ramazonova Salomat Saidovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq pedagogikasi tushunchasining tahlili, pedagogika haqidagi qarashlar, fikrlar va manbaalar haqida fikr yuritilgan, ta'lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining o'rni va ahamiyati yoritib berilgan bo'lib, milliy qadriyatlarimiz va urf- odatlarimizni o'zida aks ettirgan istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda o'zimizga xos milliy xususiyatlarimizni unutmasligimiz kerakligi ta'kidlab o'tiladi.. Xalq pedagogikasi mohiyati va ta'lim-tarbiya tizimining mazmunida xalqning turmush tarzi, milliy an'analari va urf-odatlarini ifoda etilganligi haqida ma'lumotlar to'planib, ushbu maqoladan xalq pedagogikasi sohasi bo'yicha izlanayotgan mutaxassislar foydalana olishi mumkin.

Kalit so'zlar: pedagogika, mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБРАЗОВАНИЯ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация: В данной статье анализируется понятие народной педагогики, взгляды, мысли и источники о педагогике, выделяется роль и значение народной педагогики в процессе воспитания, отражены наши национальные ценности и традиции, подчеркивается, что мы не должны забывать наши уникальные национальные особенности при воспитании в сознании молодежи идеологии независимости. данная статья может быть использована профессионалами в области народной педагогики.

Ключевые слова: педагогика, трудолюбие, воинственность, нравственность, утонченность, дружба, доброта, гуманизм.

Annotation: This article analyzes the concept of folk pedagogy, views, thoughts and sources about pedagogy, highlights the role and importance of folk pedagogy in the process of education, reflects our national values and traditions. It is

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

emphasized that we should not forget our unique national characteristics when instilling the ideology of independence into the minds of young people. this article can be used by professionals in the field of folk pedagogy.

Keywords: *pedagogy, hard work, combativeness, morality, sophistication, friendship, kindness, humanitarianism*

Istiqlol sharofati bilan tariximizga va madaniy merosimizga munosabat tubdan o'zgardi. Biz endilikda unitilayotgan o'tmishimizni butun borliq, mahobat va buyukligi bilan ko'z oldimizga keltirmoqdamiz. Xalqimizning o'zligini anglash va milliy uyg'onish hissiyotini rivojlantirish, yoshlar ongiga tariximiz va uning boy qadriyatlarini singdirish, milliy g'oyaga asoslangan mustaqillik mafkurasi tuyg'ularini boyitib borish hayotimizning mazmuniga aylanmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Agar jamiyat hayotimizning tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz".¹Haqiqatan ham ma'naviyat- odamning ruhiy va aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, inson qalbining eng pokiza tuyg'ular bilan boyituvchi hamda uni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi beqiyos kuchdir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqi ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos maktab yaratgan. Turon zaminimiz Turkistonning dovrug'i olamga sig'may, necha-necha zamonlardan beri ellardan-ellarga, tillardan-tillarga o'tib doston bo'lib kelganligi tarixiy asarlarda eslatib o'tilgan. O'zbek xalqining yosh avlodni ijtimoiy hayotda komil insonlar etib tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan o'zbek xalq pedagogikasi – xalq va donishmandlarning yoshlarni davr

¹ Sh. Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. T., "Tasvir", 2021

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

talablariga muvofiq kishilar qilib yetishtirishda, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llagan usul, vosita va tajribalar yig'indisidan iboratdir. Chunki hali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davridayoq qabila a'zolarining yoshlarda mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik xislatlarini shakllantirish va o'stirish sohasidagi aqlidroki o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida bizning davrga qadar etib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi. Xalq pedagogikasi - tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui sifatida rivojlangan, muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyat hamdir. Shunday ekan, biz yoshlarni mana shunday xislatlarni o'zida mujassam etgan jamiyatning yetuk shaxslari etib tarbiyalashda xalq pedagogikasining maqsad va vazifalarini anglashimiz lozimdir.

Xalq pedagogikasining hozirgi kundagi yana bir vazifasi — milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, xalq pedagogikasi an'analarini ta'lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish, uning eng yaxshi tomonlaridan unumli foydalanishdir. Xalq pedagogikasi boy ilmiy-pedagogik manbalarga ega. Pedagogika sohasida ijod etgan M. J. Mutalipova, M. Ochilov K. Hoshimov, I. Jabborov, M. T. To'laboev, M. Mo'minov, G. A. Hidoyatov, B. A. Qodirov, O. M. Musurmonova, M. Sherboev, R. Usmonov, A. K. Munavvarov, U. Mahkamov kabi ko'pgina olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy pedagogik adabiyotlar xalq pedagogikasi sohasidagi muhim manba sanaladi. Ayniqsa, «Xalq pedagogikasi», «Pedagogika tarixi», «Pedagogika» kabi darslik va qo'llanmalardan asosiy manba sifatida foydalanganimizni alohida e'tirof etamiz. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalq pedagogikasi juda ko'p qirrali bo'lib, maxsus o'rganishni talab etadi. O'zbek xalq

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

pedagogikasi mazmunan boyib, mukammallashib borishida ilm-fanning boshqa sohalari ular bilan bevosita aloqada bo'ladi va eng yaxshi namunalarini o'ziga qabul qilib oladi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g'oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim-tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi. Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasining xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas. U asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin tutgan. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Uning muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, asosiy mohiyati millatga xos bo'lgan xususiyatlarning saqlanishini ta'minlash sanaladi.² Chunonchi, muqaddas dinimiz, qadriyatlarimiz, urf- odat va an'analarimizning haqiqiy mohiyatini hayotiy, ta'sirchan misollar asosida keng xalq ommasiga muntazam yetkazish xalq pedagogikasining dolzarb vazifalaridandir

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'ldi. Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish markazi "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bag'dod, "Baytul hikma") tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asnosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining

² M. J. Mutalipova. Xalq pedagogikasi. T, 2011

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

maxsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi. Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning maydonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari, yosh avlod tarbiyasida xalq pedagogikasining o'rni haqidagi qarashlari va yozgan bebaho asarlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Haqiqatan ham, buyuk allomalarimizning inson kamoloti haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilganligi bilan alohida qadrli.

Jamiyatimizda yangilanish jarayoni ketayotgan, qadriyatlarimiz tiklangan bir paytda milliy - ma'rifiy boyliklarimiz sirasiga kiruvchi o'tmish donishmandlari, buyuk allomalar va mutafakkirlarning bizga qoldirgan bebaho merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizni jahonga tanitgan buyuk siymolar, ulug' allomalar, mard va qahramon farzandlarning hayot yo'li, butun faoliyati bugungi va kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi. Zamonlar o'tishi bilan bu nodir ma'naviy durdonalarning qimmatini va ahamiyatini yanada oshib boraveradi. Ulug' ajdodlarimizning merosidagi pedagogik g'oyalar xalq pedagogikasida atroflicha o'rganiladi. Chunonchi, xalq pedagogikasi xalqning tarbiya bo'yicha tajribalar majmuyi deb qaraladigan bo'lsa, allomalarimizning yosh avlodni axloqiy tarbiyalash borasidagi pedagogik g'oyalari xalq donishmandligi, xalq dunyoqarashi bilan o'zaro uyg'un va chambarchas bog'liqdir. Zaminimizda yashab o'tgan bugun ham dunyo ahlini hayratga solayotgan buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va mislsiz ilmiy-

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

ijodiy kashfiyotlari, ulardagi axloqiy ta'limotlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish juda muhimdir.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilmiy ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Olimning xalq pedagogik qarashlari, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma'rifatida deb biladi. Yaratgan asarlarida u ta'lim-tarbiyaga doir she'r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra xayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Olimning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari unga katta shuhrat keltiradi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug'laydi, uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Adib o'quv va bilimni farqlaydi: o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa, insonning qadri ortadi. Masalan: Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-Haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub - ul qulub», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir. Bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan³.

Yosh avlodlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Demak, komillik sifatleri- mehr-muruvvat, adolat, or-nomus, to'g'rilik, vijdon, iroda va matonat singari xislatlarda mujassam etgan bo'lib, Sharq mutafakkirlarining yozib qoldirgan noyob manbaalarida bu xislatlarni inson o'zida aks ettirishda xalq pedagogikasi va manbalarining o'rni beqiyosligi ta'kidlab o'tilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar, o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ta'lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo'shganlar, Sharq va G'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lgan. Bu manbalarda komillik va uning qirralarini yoritib berilgan bo'lib, ushbu asarlar yuksak ma'naviyat va xalq pedagogikasida o'chmas iz qoldirgan.

Jadid mutafakkirlarimizdan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Maxmudxo'ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Ular tomonidan yozilgan ko'plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda

³ K. Hoshimov. Pedagogika tarixi . Oliy o'quv yurtlari va universitetlar talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, O'qituvchi, 1996, - 191-bet

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo'lib, ular ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga etkazgandir. Shunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir. Ma'lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog'langandir. Shuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati ham va mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari ham aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Shunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to'g'ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, doimo millatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlik g'oyalarini targ'ib etib kelgan. Milliy qadriyatlarimizni e'zozlamay turib, o'z milliy qiyofamizga ega bo'la olmay, millatimiz, xalqimiz, davlatimizning erki va mustaqilligini saqlab qololmaymiz. Zero, milliy qadriyatlarimizga millatning tili, dini, urf-odatlari, an'analari, bayramlari, o'zaro muloqot va muomala shakllari kiradi. Shu bilan birga, o'zbek xalq pedagogikasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlashi taqozo etadi

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi o'zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar, jarayonlar ta'sirida rivojlanib keldi, yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda. O'tgan davrlarda mutafakkir olimlarning o'z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida, o'z tajribalarini nafaqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi ob'yektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham ularning boy merosini

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

o'rganish lozim. Bu davlatimizda ta'lim- tarbiya sohasida qabul qilinayotgan qonunlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, yurtimiz ma'naviy- ma'rifiy ishlarning rolini oshirish orqali yoshlarimizni ma'naviy hamda jismoniy jihatdan barkamol, vatanparvar, o'zligini va o'z tarixini yaxshi biladigan insonlar qilib tarbiyalash – asosiy maqsadimizdir. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan istiklol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda o'zimizga xos milliy xususiyatlarimizni unutmasligimiz kerak. Bu milliy xususiyatlarimiz oila, mahalla, ona yurt muqaddasligi, ota-onaga, Vatanga, kattalarga hurmat, ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarimizdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
2. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 305-307.
3. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, 35, 388-390.
4. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
5. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 383-388.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

6. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 138-143.
7. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
8. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). научно-методические основы организации самостоятельной работы по высшей математике. *Проблемы науки*, (4 (63)), 84-87.
9. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).
10. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. *Universum: технические науки*, (4-1 (109)), 41-43.
12. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).
13. Ergashovna, S. G., & Bahodirovna, S. N. (2019). Modern teaching technologies in teaching mathematics in elementary grades. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7.
14. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMS OF ORGANIZATION OF MATHEMATICS TEACHING IN ELEMENTARY GRADES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 5-8.
15. Bahodirovna, S. N. (2024). HEAD OF CHILDREN'S INSTITUTION IN ORGANIZING THE WORK OF FORMING MATHEMATICAL IMAGINATIONS AND BIG TEACHER'S PLACE. EDUCATORS KNOWLEDGE DEGREE AND FORMS OF DEVELOPMENT OF SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 119-124.
16. Bahodirovna, S. N. (2023). ELEMENTARY MATHEMATICS AND COHERENCE BETWEEN STAGES OF MATHEMATICS

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(5), 393-397.

17. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 292-292.

18. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. *НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 10-12.

19. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. *Вестник науки и образования*, (5-3 (118)), 40-42.

20. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

21. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 360-362.

22. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.

23. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.

24. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 440-446.

25. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 447-452.

26. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 31-43.

27. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. *Multidisciplinary Journal*

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

of Science and Technology, 4(3), 164–170.

28. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 88-94.

29. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 453-460.

30. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 445-452.

31. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.

32. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.

33. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 107-114.

34. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.

35. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.

36. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.

37. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.

38. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS* jurnali, 1(1), 209-209.

39. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

the Science of" Education" in Primary Grades. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 369-372.

40. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

41. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. Ann. For. Res, 65(1), 2719-2722.

42. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. Язык и культура (Новосибирск), (23), 127-130.

43. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.

44. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish muammosining yoritilish mazmuni. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1),200–206.

45. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). THE SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL TRAINING IN PRIMARY CLASSES. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 439–447.

46. Isomova, F. A. T. Q. (2022). МАКТАВГАЧА ТАЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ МАКТАВ ТА'ЛИМИГА ТАЙЙORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING АНАМИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.

47. Ne'matovna, T. Z. (2024). PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 7(4), 451-457.

48. NE'MATOVNA, T. Z. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 207-212.

49. Ne'matovna, T. Z. (2024). DEVELOPMENT OF STUDENTS'LINGUISTIC COMPETENCIES IN" MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY" LESSONS OF THE 3rd GRADE. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 114-118.

50. Ne'matovna, T. Z. (2024). FORMATION OF MOTHER LANGUAGE COMPETENCES IN PRIMARY CLASS STUDENTS. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 453-461.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

ISSN: 3030-3001

SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024

Том 2, Выпуск 9

51. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(10), 777-779.

52. Ne'matovna, T. Z. (2024). IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF FORMATION OF STUDENTS'LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY-GRADE MOTHER TONGUE CLASSES. *International journal of artificial intelligence*, 4(03), 459-461.

53. Rajabova, Nodirabegim K. "Pedagogical Conditions for Improving the Research Activities of Future Primary School Teachers."

54. Komilovna R. N. METHODS AND TOOLS OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE CONCEPT OF FIGURE FACE IN STUDENTS. – 2021.

55. Radzabova K. N. Pedagogical Conditions for Improving Research Activity in Future Primary School Teachers. – 2021.

56. Ражабова Н. К. БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 349-352.

57. Radzabova N. K. FACTORS INCLUDING RESEARCH ACTIVITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //НАУКА, ТЕХНОЛОГИИ, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 119-121.

58. Davranova G. Collaboration between kindergarten and family //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

59. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 538–543.

60. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742–748.

61. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(4), 568–5672.